

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ALISHER NAVOIY “XAMSA”SI AKADEMIK BOTIRXON VALIXO‘JAYEV TALQINIDA

Dilshoda Xasanova

Sharof Rashidov nomidagi

SamDU ilmiy tadqiqotchisi

Email: holidahasanova@gmail.com

Annotatsiya: Alisher Navoiyning “Xamsa” asari yirik adabiyotshunoslar tomonidan turli adabiy-tarixiy, ilmiy-nazariy muammolar negizida o‘rganilib kelinadi. Mazkur adabiyotshunos olimlar orasida Botirxon Valixo‘jaevning munosib o‘rni bor. Botirxon Valixo‘jaev Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarini ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlariga o‘xshashligi va ijodiy o‘zgartirishlar kiritishini “nazirai-benazir – o‘xshash-o‘xshamas” uslubda yozgan va bu an’anani mukammallashtirgan degan ilmiy xulosani beradi. Adabiyotshunos Botirxon Valixo‘jaev Alisher Navoiy “Xamsa”si, xamsanavislar ijodi, shakl va mazmunidan jiddiy farqini, o‘xshash jihatlarni ham munosib baholaydi.

Kalit so‘zlar: Sharq mumtoz adabiyoti, xamsachilik an’anasi, navoiyshunoslik, janr va mavzu, B. Valixo‘jaev qarashlari, talqin va tahlil.

Аннотация: Произведение Алишера Навои “Хамса” изучается крупными литературоведами на основе различных литературно-исторических, научно-теоретических проблем. Среди этих ученых-литературоведов достойное место занимает Ботирхан Валиходжаев. Ботирхан Валиходжаев даёт научный вывод о сходстве эпосов “Хамса” Алишера Навои с эпосами его учителей Низами Гянджеви, Хусрава Дехлеви, о внесении творческих изменений в стиль “назираи-беназир – подобное-непохожее” и усовершенствование эту традицию. Литературовед Ботирхан Валиходжаев “Хамсу” Алишера Навои адекватно оценивает не только ее серьезные отличия от творчеств, формы и содержания хамсанвисов, но и сходные аспекты.

Ключевые слова: восточная классическая литература, традиция пятерец, навоийведение, жанр и тема, взгляды Б. Валиходжаева, интерпретация и анализ.

Annotation: Alisher Navoi’s work, “Hamsa” is studied by major literary critics on the basis of various literary-historical, scientific-theoretical problems. Among these literary critics, there is a worthy place of Batirkhan Valikhudjaev. Batirkhan Valikhudjaev made a scientific conclusion about the similarity and creative change of the epic “Hamsa” by Alisher Navoi with the epics of his teachers Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi, written in the style of “nazirai-benazir – like-unlike” and improving this tradition. Literary critic Batirkhan Valikhudjaev appreciated Alisher Navoi’s “Hamsa”, the work of hamsanavis, their essential difference in form and content, as well as similarity.

Key words: eastern classical literature, tradition of fives, Navoi studies, genre and theme, views of B. Valikhojaev, interpretation and analysis.

Hazrat Navoiyning “Xamsa” dostoni yaratilgandan buyon adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Asar xususida yaratilgan ilmiy ishar: maqola, tezis, monografiya, dissertatsiyalarni bir joyga jamlasa, katta kutubxona barpo bo‘ladi. Har bir olim o‘z qarashlari orqali Navoiyning yana bir qirrasini kashf etadi. Shunday insonlardan biri akademik Botirxon Valixo‘jayev bo‘lib, xamsachilik va Navoiy “Xamsa”siga oid muhim ma’lumotlar keltiradi. Jumladan, shorning “Xamsa” yozishga

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

doir maqsadini shunday izohlaydi: “Alisher Navoiyning lirik merosi butun Xuroson va Mavorounnahrda mashhur bo‘lsa-da, shoir bu ishidan qoniqmasligini, masnaviy ko‘rinishidagi epik dostonlar yaratish niyati borligini lirik chekinish sifatida “Xamsa”ning so‘nggi dostonida eslatib o‘tadi. Albatta, bu tabiiy hol edi. Ko‘p yillik o‘ylov, mashaqqatli mehnat adog‘iga yetgach, badiiy-g‘oyaviy niyat xayrli yakun topgach, erkin nafas olish va bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilish ijod ahlining o‘ziga xos xarakter ko‘rinishlaridandir”. Adabiyotshunos olim Alisher Navoiyning quyida keltirilgan baytlarini ustozlari oldidagi mas’uliyat deya baholaydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasiga panja urmoq.

Kerak sher oldida ham sheri jangi

Agar sher bo‘lmasa, bore palange[4.223].

Ko‘ngildagi ezgu niyat, ya’ni o‘zbek (turk) tilida ham shunday buyuk asar yaratish, o‘zbek tili imkoniyatlarini butun dunyoga ko‘z-ko‘z etish, turkiy tilli xalqlarni ham bahramand etish kabi olijanob maqsad xavotirni yo‘qqa chiqardi, shu bilan birgalikda unga kuch ham bag‘ishladi, deb Navoiy ruhiyatida kechgan sarosimadan keyingi shaxdni to‘g‘ri anglaydi. Botirxon Valixo‘jayev “Xamsa”ni o‘ziga xos janr deb atar ekan “Xuddi ana shu davrda “Xamsa” o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan badiiy janr sifatida shakllandi. Shuning natijasida u ham bir sujetli, ham ko‘p sujetli hamda sujetsiz – maqolatlardan iborat asarlardan tashkil topdi, ya’ni qurilish jihatidan ko‘pqirrali janr bo‘ldi. Uning asosiy mavzusi ham insonning ko‘pqirrali faoliyatini badiiy obrazlar misolida aks ettirishdan iboratdir”[4.264] deya janrning asosiy mavzusini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Keyingi yillardagi tadqiqotlarda “Xamsa”ni janr sifatida baholash, tekshirish biroz jadallashganini ko‘rish mumkin. “Xamsa”ning yangicha talqinini yuzaga chiqargan Uzoq Jo‘raqulov Suvon Melining “Xamsa” super janr sifatida” mavzusida ko‘targan muammosiga shunday javob beradi: “Adabiyotshunos Suvon Melining “Xamsa” janrini belgilash yo‘lidagi urinishlarini e’tirof etish joiz. Ammo yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, “Xamsa” janrini superjanr emas, universal janr tarzida belgilash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Negaki, “universal” so‘zi “super” so‘zi singari ulkan, ko‘lamdor ma’nolarni emas, aniq tizimga ega, ko‘plab qismlardan tashkil topgan, ayni paytda murakkab bir butun fenomenal hodisani ifodalaydi”[8.264]. Ko‘rinadiki, Uzoq Jo‘raqulov ko‘zda tutgan janr o‘ziga xosliklari, alomatlari Botirxon Valixo‘jayev nazarda tutgan jihatlarga mazmunan va mohiyatan yaqinligi seziladi. Tadqiqotchi olim Alisher Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”larga to‘xtaladi. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy barchaga ma’lum va mashhur shoirlar ekanini, ko‘pchilik kitobxonlar yaxshi bilishligini hisobga olib, Xoji

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Kirmoniy, Salmon Savajiy, Tabreziy, Kotibiy, Kavkabi, Ashraf kabi shoirlarning turli ko‘rinishlardagi beshliklariga jiddiy e‘tibor qaratadi. Tadqiqotchi bularning ko‘pchiligidan Alisher Navoiy xabardor edi, deb yozadi va ularning ayrimlaridan misollar keltiradi. Ashraf Marog‘aviyga bir muncha to‘liqroq to‘xtaladi. “Xamsa” tipiga kiruvchi dostonlarini keltiradi. Xuddi shunday fikrni Abduqodir Hayitmetovda ham o‘qiymiz: “Navoiy kompozitsiya va syujet liniyalarining taraqqiy ettirish qahramonlarning xarakterlarini ustalik bilan chizish, til va boshqa masalalarda avvalo Nizomiy, so‘ng Xusrav Dehlaviy, Jomiydan, qolaversa ikkinchi, uchinchi darajali shoirlarni o‘rganishdan ham tortinmagan, ularning muvaffaqiyatli tomonlaridan diqqat va kamtarinlik bilan o‘rgangan. Masalan, u “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Layli va Majun”ni yaratishda Xoji Himmatiyning “Gavharnoma”sidan, “Sab‘ai sayyor”ni yaratishda Ashrafning “Haft paykar”idan ko‘p narsa o‘rganganligiga ishora qiladiki, bu g‘oyatda ibratlidir”[9.132] - deb yozadi. Ko‘rinyaptiki, adabiyotshunoslar fikrlari bir joydan chiqmoqda. Bir-birini to‘ldirmoqda. Mazkur fikrlar Navoiyning “Xamsa” yozishga uzoq tayyorgarlik ko‘rganini ko‘rsatadi. Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydan boshqa bir qancha “Xamsa” yozishga uringan shoirlar asarlari bilan ham tanishib chiqadi. Ularning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi sabablarini birma-bir tahlildan o‘tkazadi. Shu bilan birgalikda kamtarinlik bilan ulardan o‘rganganligini ham aytib o‘tadi. Botirxon Valixojayev tadqiqotlaridan ham ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy “Xamsa” yozishga kirishguncha bu jarayonlarga ruhan, ma‘nan tayyorgarlik ko‘rib ulgurgan. Undagi ezgu g‘oya – turkiy tilli xalqlar ehtiyojlarini qondirish kabi niyat yaqindan yordam bergan.

Botirxon Valixojayev Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarini ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy dostonlariga o‘xshashligi va ijodiy o‘zgartirishlar kiritishini “nazirai-benazir – o‘xshash-o‘xshamas” uslubda yozgan va bu an’anani mukammallashtirgan” deb g‘oyat to‘g‘ri ilmiy xulosani beradi. Adabiyotshunos Alisher Navoiy “Xamsa”si, xamsanavislar ijodi shakl va mazmunidan jiddiy farqini, o‘xshash jihatlarini ham munosib baholaydi. Olim fikricha, “Xamsa” dostonlari alohida-alohida dostonlarning birikuvini emas, balki yaxlit turkumni tashkil etadi. Shuning uchun uning ilk dostoni (“Hayrat ul abror”) fikriy-nazariy qurilmaga asoslangan bo‘lsa, boshqalari ana shu dostonidagi fikriy-nazariy dasturni badiiy timsollarda ifoda etadigan obrazlardir”. Haqiqatda, “Xamsa” janrini yagona bir badiiy tizim sifatida qaraganimizda ma‘lum bo‘ladiki, ko‘rinishidan besh mustaqil dostonning biri sanalgan “Hayrat ul abror” janr ichida, universal maydon vazifasini o‘taydi. Boshqa dostonlar esa shu nazariy fikrlarning amaliy-badiiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Misol uchun “Hayrat ul abror” dostonida Alisher Navoiy falsafiy qarashlarini, inson va Alloh taolo, koinot, so‘z

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmij xalqaro konferensiya materiallari

va uning ta’rifi kabi umuminsoniy masalalarni zamonasining ulug‘ daholari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Bahovaddin Naqshband va uning davomchisi Xoja Ahrori Vali, zamona podshosi Sulton Husayn Boyqaro haqidagi mulohazalari orqali bayon etgan. Birgina “Xamsa” janrining kirish dostoni orqali ham Navoiyning ulug‘ shoir sifatidagi fazilatlari namoyon bo‘ladi, deydi adabiyotshunos.

Ganjing aro naqd farovon edi,

Lek baridan g‘araz inson edi.

Turfa kalomingga dog‘i komil ul,

Sirri nihoningga dog‘i homil ul[4.265].

Bu falsafiy mushohadani keltirishdan maqsad barcha afzalliklarga, imkoniyatlarga ega hazrati inson o‘z mavqeyini qanday saqlashi lozimligiga e’tibor qaratadi. So’ngra Hazrati Rasululloh va yuqorida sanab o‘tganimiz kishilik olamining daholari bu sohada qanday ibrat va namuna ekanliklariga ishora qiladi, deb yozadi. Muallif nazarida, diqqat hazrati insonga qaratilgan ekan, u qanday bo‘lmog‘i kerak, qanday vazifalarni bajarib, qanday vazifalarni bajarmasligi kerak kabi masalalar dostonning maqolalarida nazariy umumlashma tarzida berilishini kuzatish mumkin. Botirxon Valixo‘jayev o‘quvchi-kitobxoniga ibrat bo‘ladigan jihatlarni yoritishga harakat qiladi. Shohning adolatparvarvarligi, el-ulusning tinchligi, ularning rohat va farog‘atda yashash garovi ekanligini “Salotin bobida”gi maqolatdagi hikoyatlar orqali ifodalaydi. “Shoh G‘oziy” haqidagi hikoyatni Navoiy Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan qo‘llaganini yozadi. Aslida XV asrning ikkinchi yarmida ham Shoh G‘oziy deb Husayn Boyqaro tushunilganligiga alohida urg‘u beradi. Pirmqul Qodirov ham o‘zining “Til va el”[11.139] kitobida bu voqea aynan bo‘lib o‘tganligini, voqey hikoya ekanligini qayd etadi.

Botirxon Valixo‘jaev “Hayrat ul abror” dostonida ilgari surilgan muhim fazilatlarga diqqatini qaratadi. Ayniqsa, dostondagi axloq-odob, ota-ona hurmatini joyiga qo‘yish, katta-kichikka shafqatli bo‘lish, xizmat qilishda ham adolatga, insofqa tayanish kabi sharqona tarbiyaga e’tibor beradi. Bunday holatlarda dostonidan katta-katta parchalarni ko‘chirma qilib keltiradi. Ularni izohlab o‘tirmaydi. Negaki, kitobxon-o‘quvchi tushuna oladigan so‘zlarni tanlaydi. Bu bilan adabiyotshunos Navoiyni tushunishga, uning mutolasi bilan har doim shug‘ullanishga kitobxonlarni da’vat qiladi. Nisbatan osonroq jummalarni tushungan o‘quvchi qiyinroq jummalarga ham qiziqish bilan qaraydi, ularni anglab olishda o‘zida kuch topadi.

Botirxon Valixo‘jaev dostondagi “Hotami toyi” hikoyatidagi tikanchi cholning halol mehnati, luqmayi halol bilan yashamog‘i, garchi og‘ir bo‘lsa-da, ziyofatlardan, xazina-boylikdan ortiqligini olqishlaydi, bu bilan barchani shunday turmush

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

kechirishga, to‘g‘ri yo‘ldan toymasdan, “bir burda non rohati jon” qabilida yashashga chaqiradi. “Ikki vafoli yor” hikoyatida ikki sevishganning ma’naviy kamolati o‘limni yenganligini faxr bilan tilga olarkan, birgina hikoyatga diqqatni qaratishni alohida ta’kidlaydi. “Chunki bu hikoya o‘z mohiyati bilan bu dunyoda yashash, uni obod qilish uchun hamma odamlar burchli ekanligi, oxirat kuni o‘zi bilan hech narsani olib bormasligini ifoda etadi”. Bu hikoya XIV maqolatdan keyin keltirilib, “Iskandarning...” deb boshlanadi. Bunda juda katta falsafiy xulosani ifoda etuvchi obraz “xoli ilik”, ya’ni yetti kishvarning podshohi vafotidan so‘ng tobutdan uning bir qo‘lini – xoli qo‘lini chiqarib qo‘yish holati mavjudligiga e’tibor qaratadi. Demak, bu “xoli ilik” (bo‘sh qo‘l) hammaga tajriba saboq bo‘lmog‘i lozim - deydi adabiyotshunos. Shundan so‘ng bu hikoyatdan ijtimoiy mazmun keltirib chiqaradi. Undan o‘zi qattiq ta’sirlangani bois, barcha kitobxonlarga ham juda yaxshi saboq bo‘lishini xohlaydi. Inson hayoti davomida hamma narsani – boylikni ham, qobiliyatlarini ham vatanning obodligiga, tinch-osoyshtaligiga sarflashini aytadi. Axir u hech narsani o‘zi bilan qabrga olib ketmaydiku, degan achchiq xulosani o‘rtaga ritorik so‘roq qilib tashlaydi: Hamma narsa shu bir dunyoda qoladi, tirik insonlarga qoladi. Bunda chuqur ma’no bor, falsafiy hikmat bor – hamma narsa inson uchun yaratilgan va unga xizmat qilmog‘i kerak. Chunki dunyo mavjudodi orasida eng mo‘tabari insondir. Demak, inson ana shunday ulug‘ martabali zot ekan hayoti vaqtida uni munosib yashamog‘i darkor”. Botirxon Valixo‘jaev nazarida, ana shu hazrati insonning hayot yo‘llarida munosib yashamog‘i obrazlarda ko‘rsatilib beriladi. Bular “Xamsa”ning qolgan to‘rtta dostoniga xos bo‘lgan xususiyatlardir.

Xulosa qilib aytganda, Botirxon Valixo‘jayev xamsanavislik va Navoiyning “Xamsa”si ana’analari poetik olamini har tomonlama to‘liq, mukammal ilmiy tahlil qiladi. Bu ilmiy mulohazalar bugungi kunlarda ham ayni yo‘nalishda poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan xamsanavislik va Alisher Navoiy “Xamsa” asari dunyo adabiyotida o‘zga xos bir hodisa bo‘lib, uni xolis baholash Sharq adabiyoti va shoir ijodini chuqur anglashga olib keladi. Bu yo‘lda ustoz Botirxon Valixo‘jayev qarashlari ibratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. TAT. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. – Toshkent: G.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. TAT. Layli va Majnun. Sab‘ai sayyor. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 696 b.
3. Alisher Navoiy. TAT. Saddi Iskandariy. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi mulki Ajam. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 704 b.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

4. Valixo‘jaev B. Saylanma. II qism. – Samarqand: SamDU nashri, 2022
5. Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. I jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 304 b.
6. Valixo‘jaev B. Mumtoz siymolar. II jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 175 b.
7. Valixo‘jaev B. O‘zbek epik she‘riyati tarixidan. – T.: Fan, 1974. – 151
8. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010 yil
9. ASADOV, M., & JAMOLOVA, S. (2022, February). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF LOVE IN THE POETRY OF ALISHER NAVOI. In Conference Zone (pp. 331-333).
10. Asadov, M. (2023). NAVOIY QIT“ ALARIDA “FALON” OBRAZI TALQINI. Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1), 11-18.
11. Asadov, M. (2022). Some Comments Concerning Navoi’s “Sakinama”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(1), 178-182.